



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№ 11



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 50 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDiy XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELII	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	



O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi

Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi
xalqaro instituti, assistenti
irodakomilova002@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirish strategiyalari tahlil qilingan. Mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy sektorni rivojlantirish va xalqaro kapital oqimini kengaytirishga qaratilgan islohotlar samarasi yoritilgan. Tadqiqotda normativ-huquqiy asoslar, investitsion muhit ko'rsatkichlari va tarmoq bo'yicha ustuvor yo'nalishlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: investitsion jozibadorlik, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, davlat-xususiy sheriklik, kapital bozori.

Abstract. This article analyzes strategies for increasing Uzbekistan's investment attractiveness. The study highlights reforms aimed at improving the investment climate, developing the private sector, and expanding international capital inflows. The research is based on legal frameworks, investment indicators, and sectoral priorities of the national economy.

Key words: investment attractiveness, foreign investment, economic growth, public-private partnership, capital market.

Аннотация. В статье рассматриваются стратегии повышения инвестиционной привлекательности Узбекистана. Освещены результаты реформ, направленных на улучшение инвестиционного климата, развитие частного сектора и расширение притока иностранного капитала. В исследовании анализируются нормативно-правовая база, показатели инвестиционной активности и приоритетные отрасли экономики.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность, иностранные инвестиции, экономический рост, государственно-частное партнёрство, рынок капитала.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion muhitni yaxshilash va barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlarning, jumladan, xorijiy investorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, investitsiya bozorida sog'lom raqobatni rivojlantirish hamda kapital bozorini yanada takomillashtirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilanmoqda.

Mazkur jarayonlar "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsadlar bilan bevosita uzviy bog'liq bo'lib, unda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay biznes muhitini shakllantirish, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini kengaytirish va innovatsion iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan. Shu asosda har yili O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi qabul qilinib, iqtisodiyotning real sektori, infratuzilma, energetika, transport va qishloq xo'jaligi sohalarida yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistondagi islohotlar samarasi xalqaro reytinglarda ham o'zining munosib aksini topmoqda. "Iqtisodiy erkinlik indeksi"dagi o'rimiz so'nggi besh yilda 48 pog'onaga yuqori ko'tarildi. Garvardning



“Iqtisodiyot murakkabligi indeksi”dagi o‘rnimiz 28 pog‘onaga yaxshilandi. O‘tgan oyda nufuzli “S&P” agentligi O‘zbekistonning suveren reytingi prognozini “barqaror”dan “ijobiy”ga oshirdi [5].

Biroq, mavjud yutuqlarga qaramay, investitsion muhitda ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, kapital bozorining nisbatan sust rivojlanganligi, normativ-huquqiy bazaning to‘liq moslashmagani hamda investitsion infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi xorijiy investitsiyalar oqimini cheklovchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, raqobatbardosh iqtisodiyot sari yo‘lni jadallashtirish va barqaror rivojlanish strategiyasini amalda ro‘yobga chiqarish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” PF–4947-sonli farmoni mamlakatning investitsion siyosatini shakllantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatda iqtisodiyotni liberallashtirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, xususiy mulk huquqini himoya qilish va investitsion muhitni yaxshilash orqali xorijiy sarmoyalarni jalb etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF–60-sonli farmoni mamlakatda investitsion siyosatni yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan. Strategiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biri — investitsiya muhitini yanada yaxshilash va jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, shundan 70 milliard dollari xorijiy investitsiyalarni jalb etish vazifasidir[2].

Hujjatda energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va ekologiya kabi tarmoqlarga davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida 14 milliard dollarlik investitsiyalarni jalb etish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, “pastdan-yuqoriga” tamoyiliga asoslangan yangi investitsiya boshqaruv tizimi joriy etilishi, investitsiyalarning samaradorligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirish choralari belgilangan.

Farmon doirasida Toshkent xalqaro investitsiya forumini muntazam o‘tkazish, hududlar va xorijiy mamlakatlar biznes doiralari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, investorlarga ko‘mak markazlarini tashkil etish tashabbuslari mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi PF–158-sonli farmoni mamlakatning uzoq muddatli investitsion siyosatini belgilab berdi. Hujjatda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini har yili o‘rtacha 7 foizga oshirish, jami 250 milliard dollar, shundan 110 milliard dollar xorijiy va 30 milliard dollar DXSh investitsiyalarini jalb etish maqsadi qo‘yilgan [3].

Strategiyada qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, “Xalq IPO” dasturi orqali 40 ta davlat korxonasini xususiylashtirish, hamda venchur va pay jamg‘armalari orqali moliyaviy faollikni oshirish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosatini samarali amalga oshirish, investitsion jarayonlarni boshqarish va ularning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini kuchaytirish maqsadida qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 16-sonli qarori mazkur yo‘nalishda muhim konseptual ahamiyat kasb etadi [4].

Mazkur qarorga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi investitsiya dasturini shakllantirish, uni xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar asosida takomillashtirish bo‘yicha vakolatli organ sifatida belgilangan. Shuningdek, ushbu idoraga investitsiya dasturining amalga oshirilishini monitoring qilish va nazorat qilish vazifalari yuklatilgan bo‘lib, bu amaliyot mamlakatda investitsion siyosatning tizimli va shaffof boshqaruvini ta‘minlashga xizmat qiladi.

J.H. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan O-L-I (Ownership–Location–Internalization) paradigmasi mamlakat investitsion jozibadorligini tushuntirishda klassik nazariy asos bo‘lib qolmoqda. Bu yondashuvga ko‘ra, investor uchun muhim savol shunchaki kapital qo‘yish emas, balki aynan qayerga va qanday sharoitda qo‘yish ekan: joylashuv afzalliklari (location advantages), huquqiy-institutsional muhit va transaksion xarajatlarni nazorat qilish imkoniyati hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Jon Garri Danning — britaniyalik iqtisodchi bo‘lib, “xalqaro biznes” (international business) ilmiy yo‘nalishining asoschilaridan biri sifatida keng tan olingan. Uning ilmiy ishlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning sabablari va oqibatlari hamda transmilliy korporatsiyalarning xulq-atvorini o‘rganishga qaratilgan. Danningning “eklektik paradigmasi” (OLI — Ownership, Location, Internalization) MHKlar va xalqaro investitsiyalarni tadqiq etishda asosiy model sifatida e‘tirof etilgan.

Investitsion jozibadorlikni oshirish mavzusi nafaqat makro-iqtisodiy strategiyalarda, balki iqtisodiy fan doirasida ham keng o‘rganilgan. Xorijiy adabiyotlar mamlakat investitsion jozibadorligini belgilanganda eng ko‘p uchraydigan omillar sifatida:



- institutsional barqarorlik va huquqiy kafolatlar,
- infratuzilma rivoji va bozor sharoitlari,
- davlat siyosati va investitsion ochiqlikni ko'rsatib beradi.

Akademik S.S. G'ulomov investitsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida muayyan investitsion obyektga yo'naltirishi tushuniladi" [6].

A. Sobirov investitsiyalarning mazmun-mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Investitsiyalar – bu daromad olish yoki ijtimoiy samara erishish maqsadida tadbirkorlik yoki faoliyatning boshqa turlariga investorlar tomonidan yo'naltiriladigan mulk va intellektual qadriyatlarining barcha shakllarini ifodalovchi mablag'larning kiritilishidir" [7].

A. Otaboyevning takidlashicha Normativ-huquqiy bazaning barqarorligi, huquqiy tizimlarning mustahkamligi, infratuzilma sifati, siyosiy muhit va malakali ishchi kuchining mavjudligi kabi omillar investorlarga qulay sharoit yaratishda muhim rol o'ynaydi [8].

Xorijiy va mahalliy adabiyotlarda investitsion jozibadorlikni oshirish strategiyalarining markazida institutsional ishonch, iqtisodiy erkinlik, kapital bozori rivoji, innovatsion iqtisodiyotga o'tish, hamda davlat siyosatining barqarorligi turadi. Shu bilan birga, o'zbekiston tajribasida ushbu omillarni kompleks tarzda uyg'unlashtirish, ya'ni qonunchilik, infratuzilma, moliya va kadrlar salohiyati tizimini bir butun mexanizm sifatida rivojlantirish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish muhim ilmiy va amaliy yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni tahlil qilishda tizimli, tahliliy va taqqoslama yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro investitsiyalar nazariyalari tashkil etdi.

Ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Statistika agentligi ma'lumotlari hamda Jahon banki va UNCTAD hisobotlaridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida 2017–2024-yillar oralig'idagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, xorijiy investitsiyalar hajmi, tarmoq va hududlar kesimidagi dinamikalar o'rganilib, investitsion jozibadorlikni belgilovchi asosiy omillar aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar investitsion muhitni sezilarli darajada yaxshilab, sarmoyadorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda. Xususan, 2017–2023-yillar davomida xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o'sib, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirdi. Mamlakatda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi", "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "O'zbekiston–2030 strategiyasi" investitsion siyosatning uzviy bosqichlarini tashkil etib, iqtisodiy o'sishning barqaror modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval. Strategik investitsiyalar orqali erishiladigan ustunliklar [9]

Strategik ustunlik	Tahliliy izoh
Raqobatbardoshlik ustunligi	Innovatsion texnologiyalar va ilg'or startaplarga sarmoya kiritish orqali bozordagi o'zgarishlarga tez moslashish va mijozlarga noyob qiymat taklif qilish imkoniyati yaratiladi.
Biznes sinergiyasining kuchayishi	Investitsiyalarni kompaniyaning asosiy faoliyati bilan uyg'unlashtirish sinergiyani kuchaytiradi va strategik barqarorlikni ta'minlaydi.
Brend qiymatining oshishi	Ijroiy imijga ega loyihalarga investitsiya kiritish kompaniya obro'sini oshirib, ishonch va bozor e'tiborini kuchaytiradi.
Barqaror o'sish	Diversifikatsiya orqali kompaniya bir daromad manbaiga bog'liqlikdan xalos bo'ladi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

O'zbekistonning investitsion siyosati so'nggi yillarda tizimli islohotlar bosqichiga kirib, mamlakatning iqtisodiy o'sishini jadallashtirish va xalqaro sarmoyadorlar uchun jozibador muhit yaratishga yo'naltirilmoqda. "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini ikki barobar oshirish, YAIMni 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadni 4 ming dollarga yetkazish maqsad qilingan.



2-jadval. 2024-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari va ularning tarkibiy tuzilishi [9]

Moliyalashtirish manbasi	Hajmi (trln so'm)	Hajmi (mlrd AQSH dollari)	Ulushi (%)
Jalb qilingan mablag'lar (jami)	374,7	29,63	75,9
- Ta'minlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar	159,6	12,62	32,3
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	150,5	11,90	30,5
- Respublika tomonidan kafolatlangan xorijiy kreditlar	23,6	1,87	4,8
O'z mablag'lari (jami)	119,0	9,40	24,1
- Korporativ fondlar	87,0	6,88	17,6
- Uy xo'jaliklari mablag'lari	32,0	2,53	6,5
Jami	493,7	39,03	100

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, fiskal va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirish, yillik inflyatsiyani 5–6 foiz darajasida ushlab turish mamlakatning investitsion jozibadorligi uchun asosiy omillar bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmini yiliga o'rtacha 7 foizga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, bu iqtisodiy o'sishning barqaror manbai sifatida baholanadi.

Sanoat tarmog'ida yuqori texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizgacha oshirish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini ikki barobar ko'paytirish, hamda elektrotexnika, metallurgiya va kimyo sohalarida 1,5 milliard dollarlik investitsiyalarni jalb etish orqali ishlab chiqarishning innovatsion tuzilmasi kengaymoqda.

Qishloq xo'jaligida 15 milliard dollarlik investitsiyalarni jalb etish, hosildorlikni oshirish va 100 ta agrologistika markazlarini tashkil etish agrar sohaning eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, "Agrosubsidiya" platformasi orqali fermerlarga qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilishi investitsion xavflarni kamaytiradi.

3-jadval. 2020–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi, o'sish sur'atlari va AQSH dollari ekvivalenti [9]

Yil	Investitsiyalar hajmi (trln so'm)	O'sish sur'ati (%)	Ekvivalent (mlrd AQSH dollari)
2020	89,8	98,9	8,90
2021	101,4	102,1	9,55
2022	113,9	100,5	10,31
2023	201,7	163,8	17,18
2024	333,8	152,1	26,39

Kapital bozorini rivojlantirish yo'nalishida 40 ta davlat korxonasining "Xalq IPO"si, pay va venchur jamg'armalarini yo'lga qo'yish va 8 milliard dollarlik qimmatli qog'ozlar bozori shakllantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa xususiy kapital oqimini oshirib, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish strategiyasini qo'llab-quvvatlaydi.

Turizm, transport, suv xo'jaligi va energetika tarmoqlarida davlat-xususiy sheriklik asosida yirik loyihalarni amalga oshirish, hududlarning investitsion reytingini yuritish hamda Toshkent xalqaro investitsiya forumini o'tkazish mamlakatning global investitsion imijini mustahkamlamoqda.

Mazkur tahlil jarayonida O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar — huquqiy muhit, infratuzilma rivoji, soliq va moliyaviy imtiyozlar, davlat-xususiy sheriklik, hamda hududiy investitsion faollik ko'rsatkichlari asosida baholandi. Tadqiqot natijalari mamlakatda investitsion salohiyat oshayotganini, lekin ayrim tarmoqlarda institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. So'nggi yillarda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi", "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "O'zbekiston–2030" strategiyasi hujjatlari investitsion muhitni yaxshilash, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va xalqaro kapital oqimini kengaytirishga qaratilgan tizimli islohotlarning huquqiy asosini yaratdi.



Investitsiya oqimlari tahlili shuni tasdiqlaydiki, mamlakatda xorijiy sarmoyalar hajmi ortib bormoqda, ammo ayrim hududlarda investitsion tengsizlik saqlanib qolmoqda. Shu bois, investitsion siyosatda hududiy diversifikatsiya, infratuzilma rivoji va raqamli boshqaruv tizimlarini kuchaytirish zarur.

Takliflar:

1. Investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun soliqqa oid imtiyozlar tizimini soddalashtirish va investorlar uchun prognoz qilinadigan tartibotlarni joriy etish lozim.
2. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va strategik tarmoqlarga xususiy kapitalni jalb etish choralari kuchaytirilishi zarur.
3. Hududiy investitsion reyting tizimini joriy etish orqali mintaqalar o'rtasidagi investitsion faollikni muvozanatlash tavsiya etiladi.
4. Kapital bozorini rivojlantirish va "Xalq IPO" dasturi orqali aholining investitsion ishtirokini kengaytirish samarali yo'nalish bo'ladi.
5. Raqamli platformalar va investitsiya portallarini takomillashtirish orqali investorlar uchun ochiq, tezkor va shaffof axborot maydonini yaratish zarur.

Umuman olganda, investitsion jozibadorlikni oshirish strategiyasi O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror o'sish yo'liga olib chiqish, xalqaro maydonda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini mustahkamlash va "Yangi O'zbekiston-2030" strategiyasi maqsadlariga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni — "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", <https://lex.uz/docs/-3107036>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni — "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni — "O'zbekiston-2030" strategiyasi, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16-sonli qarori
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi, 10.06.2025 <https://president.uz/oz/lists/view/8203>
6. Менеджмент ва бизнес асослари (дарслик). С.С.Фулломовнинг умумий таҳрири остида. – Т.: Меҳнат.1997-245 б.
7. Собиров А. Ўзбекистон Республикаси иқтисодиётига инвестициялар жалб этишни давлат томонидан тартибга солиш механизмларини такомиллаштириш. И.ф.н.илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ТДИУ. 2009. 12 б.
8. Otoboev Akhmed Makhsudbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasriddinov, "Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape", Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2024-yil, mart. № 3-son. 704-708 b. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1397>
9. Otoboyev. A.M., "Strategik rivojlaniSh Sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni", Muhandislik va iqtisodiyot 2025-yil, iyun. № 6-son, 54-60 b. https://t.me/yait_2100/11706



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>